

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA "BOSH KELISHIK" NING IFODALANISHI

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

FKOR 2210-guruh talabasi

Saidxonova Nazokatxon Kamolxon qizi

E-mail: nazokat_saidxonova@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek va koreys tillarida bosh kelishik qo'shimchalarining qay tarzda ifodalanishi tahlil qilinadi. Bu o'zining ichiga o'zbek va koreys tillarida bosh kelishikning ifodalanishidagi farqlari; O'zbek va koreys tillaridagi bosh kelishikning misollar bilan tahlili ko'rsatib, tasvirlab beriladi. Xususan, koreys tilida bosh kelishik qo'shimchasining qay darajada o'xshashligi va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *bosh kelishik qo'shimchasi, ot, ega, kesim, o'zbek tili, koreys tili, qo'shimchalar.*

O'zbek tilidan ma'lumki, Bosh kelishik boshqa kelishiklarga zid holda ko'rsatkichsiz hisoblanadi. Bu kelishikdagi so'zlar Kim? Nima? Qayer? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Bosh kelishik otning bosh shakli bo'lib, u egalik, ko'plik qo'shimchalari bilan qo'llanganda ham o'z mohiyatini yo'qotmaydi. Masalan: kitob, kitoblar, kitobim. Bosh kelishikdagi so'z boshqa so'zlar bilan quyidagicha ikki turdagi munosabatga kirishadi:

a) mikrosintagmatik munosabatli barqaror birikmalar hosil qilishda ishtirok etadi:

1.Qo'shma so'zlar yasalişida ularning tarkibiy qismi sifatida ishtirok etib, tobe munosabatli mikrosintagmatik butunlik hosil qiladi. Masalan: toshko'mir, oshqozon, jigar rang, kul rang, tamom bo'lmoq, hayron bo'lmoq, qaror qilmoq, va'da bermoq.

2.Bosh kelishikdagi ot takroriy (teng munosabatli mikrosintagmatik aloqada) qo'llanib, o'z lug'aviy ma'nosidan tashqari miqdoriy ortiqlik, kuchaytirish kabi qo'shimcha ma'no bo'yoqlariga ega bo'ladi: ombor-omor g'alla, guruh-guruh odam, quchoq-quchoq gul.

b) makrosintagmatik munosabatni shakllantirishda ishtirok etadi:

1. Gapda ega vazifasini bajaradi: Oltin o'tda, odam mehnatda bilinadi. Toshkent-do'stlik shahri.

2. Kesim yoki uning ot qismi vazifasini bajaradi: Mustaqillik-buyuk ne'mat. Hunarlining qo'li-gul. Anvarning akasi fermer ekan.

3. Izohlovchi vazifasini bajaradi: Majlisda professor Mamatov nutq so'zladi.

4. Sifatlovchi vazifasida qo'llaniladi: Asfalt yo'ldan mashinalar g'iz-g'iz o'tib turar edi.

5. Bosh kelishikdagi otlar bilan, uchun, uzra, haqida, to'g'risida ko'makchilari bilan birgalikda vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi: Ona o'g'ilchasini oq choyshab bilan o'radi.

6. Payt bildiruvchi otlar bilan birikib, hol vazifasida kelishi mumkin: Shu kuni Odilbek mehmon kutmoqda edi.

7. Bosh kelishikdagi ot yakka yoki birikmali holda atov gap vazifasini bajaradi: Kuz. Izg'irin shabada hushtak chalib turibdi

8. Undalma vazifasini bajaradi: Chimxo'rsan-da, qizim, shu ham osh yeyishmi? (A.Qod.)

Koreys tilida ham bosh kelishik bir gapning egalik qismiga qo'shiladigan qo'shimcha hisoblanib, 주격조사 deb ataladi. Koreys tilida o'zbek tilidan farqli ravishda bosh kelishik qo'shimchalari mavjud. Ular:

1. “이/가, 께서” qo'shimchalari bilan ifodalanadi. “이/가” qo'shimchalari qo'llanilish o'rniga qarab farqlanadi, ya'ni so'zning oxiri undosh harf bilan tugaganida “이” qo'shimchasi va so'zning oxiri unli harf bilan tugaganida esa “가” qo'shimchasi qo'llaniladi: 눈이 내린다 (Qor yog'ayapti) 날씨가 추워요 (Havo sovuq)

2. “께서” bosh kelishik qo'shimchasining hurmat shakli bo'lib, egaga nisbatan hurmatni ifodalaydi. Egaga “께서” qo'shilganda kesim -(으)시 ehtirom shaklini oladi: 선생님께서 지금 편지를 쓰십니다 (O'qituvchimiz hozir xat yozayaptilar). 할아버지께서 진지를 드십니다 (Bobom ovqatlanyaptilar).

3. Gap tashkilot, birlashma yoki jamoat haqida ketganida, bosh kelishik qo'shimchasi chiqish kelishigi (-에서) shaklida keladi: 우리 학교에서 승리했습니다 (Bizning maktab g'olib chiqdi). 정부에서 물가를 인상했습니다 (Hukumat narxni ko'tardi).

4. Shaxsga nisbatan sanoq sonlardan keyin bosh kelishik qo'shimchasi bilan -서 shakli ham keladi: 너희 둘이서 뭐하니? (Sen ikkoving nima qilyapsan?). 우리 둘이서 힘을 합해봅시다 (Biz ikkimiz kuchimizni birlashtirib ko'raylik).

5. Ba'zi gaplarda bosh kelishik qo'shimchasini olgan ega, gapda ikki marotabadan ortiq qo'llanilishi mumkin. Bunday holatda koreys tilidagi gaplardagi birinchisi ot, ikkinchisi esa ot-kesim tarkibi bo'lib keladi. O'zbek tiliga tarjima qilinganda birinchisi aniqllovchi, ikkinchisi esa ega tarzida tarjima qilinadi: 아파트가 나방이 잘 된다 (Xonadonning isitish tarmog'i yaxshi ishlayapti). 할아버지가 무슨 돈이 많으시겠니? (Bobomning qanaqasiga puli ko'p bo'lishi mumkin?)

Xulosa qilib aytganda, har bir tilda o'z ma'no va xususiyatlariga ko'ra “Bosh kelishik” qo'shimchasining o'z o'rnini va qo'llanilishi va turli xil shakllari bor ekan. Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarning barchasida koreys va o'zbek tillaridagi o'xshashlik va ularning farqli jihatlari qiyoslanayotganda ularning har xil tilda qay tarzda ifodalanishi yaqqol namoyon bo'ldi. Xususan, birgina kelishiklar oilasiga mansub bo'lgan bosh kelishik ham aynan boshqa tillarda ham alohida o'ringa ega ekan va u turli xil shakllarda ham uchrashi misollar yordamida ko'rsatib, isbotlab tushuntirib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Koreys tili amaliy grammatikasi”

- a. “한국어” (초급)
2. “Korean Grammar in Use”
3. “우즈베크인을 위한 한국어 문법 사전”.